


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

UMUMTEXNIKA FANLARI VA KASB TA'LIMI KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Fizika-matematika fakulteti dekani**


dots.X.Mavlyanov
“ ” 2014 yil

**5 – Sinf “Yog’ochga ishlov berish” yo’nalishida “Xalq
xunarmandchiligi xaqida tushuncha” mavzuni pedagogik
texnologik asosida tashkil etish. (yigchilik va beshikchilik)**

MAVZUIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajardi: «Mehnat» ta’lim yo’nalishi bitiruvchi
4-kurs talabasi **TURSUNOV J R**


Rahbar: f.-m. o'qituvchi Sh. S Xudayqulov


Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi. Kafedraning__ sonli
bayonnomasi. «__» _____2014 yil.

Namangan – 2014

Mundarija

I-bob. Kirish.....	5
1.1.Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati.....	8
1.2.Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.....	10
1.3.Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari.....	12
1.4.Ishdagi ilmiy yangiliklar va natijalar.....	13
1.5.Ishning amaliy ahamiyati.....	14
1.6.Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar.....	16
II bob.Asosiy qsim.....	17
2.1. Beshik xaqida umumiy tushunchalar va nazariy axamiyati.....	17
2.2. Beshikni tuzilishi va tarbiyaviy axamiyati.....	19
2.3. Beshik ixtiro - kashfiyot natijasidir.....	22
Beshikchilik ma'naviy foydali kashfiyoti.....	23
2.5. Beshikchilikka ham me'yori kerak.....	24
2.6. beshikning ma'naviy axamiyati.....	25
2.7. Beshik turlarining ko'rinishi.....	26
3 bob. Metodika	
qismi.....	29
3.1. O'rta umumta'lim maktabida o'qitiladigan mehnat ta'limi yog'ochga ishlov berish bo'limlarini o'rganish uchun dars ishlanmasi.	
3.2. Beshikning ustki taxtachasini tayyorlash.....	32
3.3. 5-sinfda "yog'ochga islov berish yo'nalishida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi" mavzusi bo'yicha dars o'rganish ketma-ketligi.....	34

3.4. Dastgohda ishlayotganda quyidagi havfsizlik qoidalariga rioya qilish lozim.	
3.5. Taxta yuzasida geometrik shakllar o'yish va yigish.....	40
3.6. Tajriba-sinovlarning natijalari	40
XULOSA.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	49
Internet materiallari.....	54

5-sinf “Yog’ochga ishlov berish” yo’nalishida “Xalq xunarmandchiligi xaqida tushuncha” mavzusini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. (yigchilik va beshikchilik)

Reja

I-bob. Kirish

- 1.1.Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati
- 1.2.Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.....
- 1.3.Tanlangan ob’ektlar va tadqiqot usullari.....
- 1.4.Ishdagi ilmiy yangiliklar va natijalar.....
- 1.5.Ishning amaliy ahamiyati.....
- 1.6.Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi haqida umumiy ma’lumotlar.....

II bob.Asosiy qsim

- 2.1. Beshik xaqida umumiy tushunchalar va nazariy axamiyati.
- 2.2. **Beshikni tuzilishi va tarbiyaviy axamiyati**
- 2.3. Beshik ixtiro - kashfiyot natijasidir. Beshikchilik ma’naviy foydali kashfiyoti
- 2.5. Beshikchilikka ham me'yori kerak
- 2.6. Beshikning ma’naviy axamiyati.
- 2.7. Beshik turlarining ko’rinishi

3 bob. Metodika qsimi

- 3.1. **O’rta umumta’lim maktabida o’qitiladigan mehnat ta’limi va tasviriy san’at predmetlari orasidagi bog’liqlik.**
- 3.2. Beshilkaning ustki taxtachasini tayyorlash

3.3. 5-sinfda “Yog’ochga islov berish yo’nalishida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzusi bo’yicha tayyorlangan dars ishlanmasi.

3.4. Dastgohda ishlayotganda quyidagi havfsizlik qoidalariga rioya qilish lozim.

3.5. Taxta yuzasida geometrik shakllar o’yish va yigish.

3.6. TAJRIBA-SINOVLARNING NATIJALARI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

INTERNET MATERIALLARI

Kirish

Muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan yurt kelajagi va ravnaqi yo'lida Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirilishi jarayoni bugungi kunda ham muxim ahamiyatga ega ekanligi hamma soha vakillariga ayon.

Mazkur dasturni amalga oshirish uchun yurtimiz o'quv dargohlarining o'qituvchilari oldida umumiy ta'limni isloh qilishning asosiy talablarini amalga oshirish, jonajon mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi uchun hizmat qiladigan har tomonlama etuk malakali kadrlar tayyorlashi lozim bo'lgan ta'lim tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish haqidagi qarorlarni hayotga tadbqiq etish bo'yicha katta va mas'uliyatli vazifalar xali xamon turibdi.

Kadrlar tayyorlash dasturining maqsadi, ta'lim soxasini tubdan islox qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy-ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini to'la-to'kis yaratishdan iboratdir.

Mustaqil ravishda bu muhim tamoii hayotimizda bizning Sharoitimizga naqadar to'g'ri va mos ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois ta'lim-tarbiya sohasida bajarilayotgan ishlarni hayotga tadbqiq qilishda mana shu islohatlarni bosqichma-bosqich o'tkazish printsipi hayotga tadbqiq etilmoqda.

Birinchi bosqich o'tish devori bo'lib, u 1997-2001 yillarni o'z ichiga oldi. Bu bosqichda milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi yangi talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash, o'quv standartlarini yaratish va yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, uch yillik ta'lim tuzilishiga tayyorlandi.

Ikkinchi bosqich 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib, u milliy dasturni to'la ruyobga chiqarish , mehnat bozorini rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni xisobga olgan holda unga aniqliklar kiritishi amalga oshirildi. Bugungi kunda esa uchunchi hal etuvchi bosqich davom etmoqda va u 2005 yil va

undan keyingi yillarda mo'ljatlanagan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni taxlil etishga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni rejalashtirilgan.

Har-bir pedagog kadrlarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy va eng muxim vazifalari quyidagilar xisoblanadi.

- yangi tur mutaxassislarni tayyorlash. Ijtimoiy salohiyat noan'anaviy fikrlash, yuqori darajadagi sobitlik o'z kasbiga moxirlikva tezkorlik, zaruriyat bo'lganda zudlik bilan qayta tayyorlani olishlik ;
- kasbi bo'yicha zamon talablari darajasidagi bozor munosabatlarini asoslarini egallash, EXM dan foydala olish, chet tillarni bilish, Shu jumladan, tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ilg'or xisoblanuvchi mamlakatlar tilini bilish ;
- o'quv jarayonini tashkil etishda uning uslubiyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchi-o'quvchi tizimida faol ishtirok etish ;
- o'quv yurtlarida barcha fanlar bo'yicha jahon umumta'lim mezonlari talablari darajasidagi yangi dasturlarni chuqur o'zlashtirish ;

Umumta'limni milliy dasturda qayj etilgan talablar asosida islox qilish Shu kunning eng dolzarb masalasi xisoblanib, ayniqsa unda maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish boshlang'ich kasbiy ma'lumotlar berish kabi masalalarni mehnat ta'limi darslari jarayonida amalga oshirish isloxatning asosiy talablaridan biridir. Ta'lim beruvchi barcha o'quv fanlari qatori mehnat ta'limi darslari ham o'z mazmuni, mohiyati, shakli va uslublari bilin islohat hujjatlarida yangicha mazmun kashf etgan.

Chunonchi bu fanni o'quvchi tomonidan bevosita fan o'qituvchisi rahbarligi ostida amalga oshiriladigan aqliy va jismoniy harakatlar majmuidan iborat bo'lib, pirovardda, ularning mehnat qurollari haqidagi bilimlarini hamda ma'lum sohadagi ishlab-chiqarish mehnatini bajarishi uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini

egallash eng muhimi esa, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va Shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga kirishi uchun imkon beruvchi Shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidar.

- shulardan kelib chiqib fanning asosiy va printsiplial maqsadlari;
- har bir o'quvchida umummehnat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning qiziqishlari, qobiliyati, moyilliklariga ko'ra kasb-xunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan xislatlarini, umummehnat madaniyatini shakllantirishi va rivojlantiri ;
- kelajak kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan turli xil asbob-uskunalar, jixozlar va moslamalardan to'g'ri va unumli foydalanishni o'rgatishi, zamonavi fmukammal jixozlar bilan ishlashda texnologik bilim va malakalarni egallash, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiena qoidalari asoslari asoslarini chuqur o'rgatish ;
- yosh avlodga bilimga intilish va mehnatga muxabbat, mehnat kishisiga nisbatan chuqur hurmat xissini singdirish ;
- mehnat qilish va kasbga tayyorlash jarayonlarida axborot kamuni-katsion texnologiyalari, zamonaviy texnika hamda jihozlarni qo'llanishi sohalarini talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o'rganishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish jarayonlari oldiga qo'yilgan yuqoridagi vazifalarni bajarishini nazorat qilish ta'lim standarti vositasida amalga oshiriladi.

O'quvchilar ta'minlanishi zarur bo'lgan mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish ta'limi mazmuni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga beriladigan mehnat ta'limi mazmunini negizini ifodalaydi.

Ushbu ta'lim mazmuni har bir xududda mavjud bo'lgan ishlab-chiqarish sohalariga mos holda o'quv dasturi va darsliklarini yaratishda asosiy mezon vazifasini bajaradi va uni amaliyotga joriy etish uchun xizmat qiladi.

1.1 Mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati.

Sir emaski, bugungi kunda dunyo miqyosida zamonaviy ishlab-chiqarishning jadal sur'atlarda rivojlanishi har-bir mutahassislardan nafaqat bilim va ko'nikma, hattoki fan yutuqlarining yuksak cho'qqilarini egallash bilan birga mustaqil fikr yurita olishni, uni rivojlantirishga hissa qo'shish muayyan sharoitda o'z bilimini tadbiq eta olishni taqozo etmoqda.

Bizning oldimizdagi asosiy vazifa, ya'ni o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashning komponentlaridan biri mehnat darslarida o'quvchilar yaratayotgan buyumlar dunyosining zamon rivojiga mos estetik va texnika taraqqiyotiga hamohang tarzda tayyorlashga o'rgatishdir.

Mamlakatimiz qudratini oshirish va uni buyuk davlatlar qatoriga qo'shishdir, murakkab va sharaflı vazifa turgan bir Sharoitda biz ko'tarayotgan masalaning ahamiyati va o'z o'rni bor. SHu bois ham yana bir masalani anglab etmoqdamizki, bugungi kunda chin ma'rifatli shaxs inson qadrini milliy qadryatlarni to'la anglab etadi, lo'nda qilib aytganda o'zligimizni anglash, erkin, ozod jamiyatgda yashash, mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rinni egallashi uchun fidoiylık bilan kurashish ruhida tarbiyalaydi.

Bugungi kun ta'lim-tarbiyasining yangi moduli jamiyatda mustaqil erkin fikrlovchi shahsning shakllanishiga olib keladi. Uni to'la to'kis amalga oshirish o'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodali, baquvvat, iymoni butun, xayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insolarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Mutaxassis uchun sir bo'lmagan narsa har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud bo'lib, unga shu ichki quvvatni yuzaga chiqarish uchun zarur

bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilsa, u o'zini to'la holda namoyon eta oladigan imkoniyatga ega bo'ladi.

Fan texnika va ishlab chiqarishning barq urib rivojlanishi bir tomondan ilmiy texnik axborotlarni o'sishga, bilim, ko'nikma va malakalarni murakkablashuviga, ikkinchi tomondan esa maktabdagi ta'lim-tarbiya berish uslubiyatini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'lida, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir." deb ta'kidlagan edilar. (I.A.Karimov-"Barkamol avlod orzusi").

Darxaqiqat, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida bu muammo kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu bois ta'lim isloxoti me'zonlaridan biri bo'lgan "Davlat ta'lim standart" larida barcha fanlar bilan bir qatorda mexnat ta'limi va unda kasbga yo'naltirish sohalariga alohida e'tibor berilgan. Jumladan: mexnat ta'limi fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlarida mexnat ta'limi va kasb tanlashga yo'naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o'quvchilarning mexnat ta'limi fanidan tayyorgarlik darajasining me'yorlariga to'la ifodalangan.

Davlat ta'lim standartiga ko'ra umumta'lim maktablarida mexnat ta'limi darslarini asosiy 5 yo'nalishi bo'yicha tashkil etish mumkinligi ko'rsatilgan.

Belgilab o'tilgan yo'nalishlarning har birida o'zaro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi.

1. Materialshunoslik asoslari.
2. Asbob uskunalar xaqida ma'lumot va ularni ishlatish usullari.
3. Mashina, mexanizm, stanok va moslamalarning umumiy tuzilishi va ishlatish asoslari.

4. Maxsulot ishlab chiqarish texnologiyasi.
5. Xalq xunarmandchiligi kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar berish va o'zaro turdosh usta kasb yo'nalishi bo'yicha kasbgacha tayyorgarlikni amalga oshirish.

5-8-sinflar uchun o'quv dasturini tahlil qilinganda har bir bo'limning mazmuni va unga talab naqadar muhim ekanligi maktab o'quvchisini nafaqat mehnat ko'nikmasini va malakasini o'rgatibgina qolmay balki zamonaviy texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish vositalari, ularni boshqarish va o'rganish, texnologik uskunalar, mashina, mexanizm, materiallar haqidagi va boshqa bir qator zamon kishisini tarbiyalashda asosiy omil xisoblanuvchi nazariy bilimlar bilan qurollantirishni taqazo etishi ko'rinadi. Ushbu tanlab olingan va tadqiqot qilayotgan bitiruv malakaviy ishning mavzusiga ana shu yuqorida keltirib o'tilgan dolzarb masalalarning isloxot talablari asosida xalq etishga ko'maklashish, maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalarini qisman bo'lsada ijobiy tomonga yo'naltirish uchun o'z e'tiborimizni qaratilgan holda mavzu tanladik. Bu ishning dolzarbligi va ahamiyatga molikligini ifodalaydi.

1.2 Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.

5-sinf mehnat ta'limi "Materialshunoslik" bo'limida "Yog'ochdan ishlangan buyumlarga pardozi berish va unda ishlatiladigan materiallar haqida ma'lumot berish" nomli bitiruv malakaviy ishning maqsadi umumta'lim maktablarining mehnat ta'limi 5-sinf darslarida materialshunoslik va mashinasozlik asoslarini o'rgatishning yosh avlodni kelajakda shu yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq bilimlar olishga, yurtimiz ravnaqi va uning moddiy boyliklariga nisbatan yuqori madaniyatli munosabatni shakllantirish, shu fanlar asoslarini o'rgatuvchi mehnat ta'limi o'qituvchisini o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy yo'llarini izohlash, hozirgi zamon ilg'or pedagogik texnologiyalarni umumli ravishda foydalanish orqali noan'anaviy dars jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni shu fanlardan olayotgan samarasini oshirish,

“Ta’lim to’g’risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarida ko’rsatilgan ta’limda uzluksiz va uzviylikni ta’minlashdan iboratdir.

Dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlar qatori Respublikamiz ham boshqalardan ajralgan hudud emas, bu mamlakatlar jahon ho’jalik aloqalarini muayyan jo’g’rofiy va siyosiy tizimlari tarkibiga kiradi.

Bu jihatdan olib qaraganda o’quvchilarga respublikamizning taraqqiyoti bo’lgan moddiy boyliklarimiz haqida, ulardan zaruriy materiallar ishlab chiqarish haqida tushinchalar berilsa, ikkinchi tomondan bu boyliklarni ko’z qorachig’idek asrab-avaylashga, ularga chin insoniy munosabatda bo’lish hamda oqilona foydalanish yo’llarni tushintirish zarur

Shu bois rivojlangan mamlakat iqtisodiyotiga, ishlab chiqarishiga monand faoliyat ko’rsatishimiz, unga mos rivojlanishimiz hamda ish tashkillashimiz lozim.

Bunday dunyoqarashni shakllantirish uni rivojlantirish hamda muammoni oqilona xal qilish yo’llarni faqatgina egallangan bilimlar orqali hal qilish mumkin. Ana shunday asosga ega bo’lgan umumta’lim fanlaridan biri mehnat ta’limi fanidir.

Fan o’qituvchilari to’la tushinadiki, mehnat ta’limi vazifalari bilan mazmuni murakkab demokratik bog’liqlikda bo’ladi. Mehnat ta’limi vazifalari turli darajada qo’yiladi va hal qilinadi.

Masalan, eng muxim umummaktab vazifasi o’quvchilarda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Ta’limni unumli mehnat bilan qo’shish, politexnik ta’lim mehnat tarbiyasi, o’quvchilarni kasbga yo’llash kabi vazifalar ko’pchilik o’quv predmentlari mehnat ta’limi bilan birgalikda hal qilinadi. Bu vazifalarni hal qilishda mehnat ta’limi aloxida rol’ o’ynaydi. Chunki mehnat mashg’ulotlarida o’quvchilarni unumli mehnatga jalb etishi hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari bilan

tanishtirish, ularda ommaviy ishchi kasblariga muxabbat uyg'otish va shu kasblar haqida etarlicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun qulay sharoitlar vujudga keladi.

Ana shu ko'rsatilgan masalalar tub mohiyatidan kelib chiqib mehnat ta'limi darslarida materialshunoslik bo'limi asoslaridan teri maxsulot ishlab chiqarishni o'rgatishga oid tadqiqot mavzuimiz hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri va uni echimini izlash hamda olingan natijalari muxim ahamiyat kasb etadi.

1.3 Tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari.

Ushbu 5-sinf mehnat ta'limi "Materialshunoslik" bo'limida "Yog'ochdan ishlangan buyumlarga pardozi berish va unda ishlatiladigan materiallar haqida ma'lumot berish" mavzu yuzasidan tadqiqot usullari sifatida umumta'lim maktablarining mehnat ta'limi dars jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish va fanni o'qitishda samarasini oshiruvchi zaruriy takliflar berishni maqsad qilib olingan. Umumta'lim maktablarining o'quvchilariga mehnat ta'limi fani darslarida "Davlat ta'lim standartlari" tarkibiga kirgan materialshunoslik fanlari elementlarini o'rgatishda ta'limni quyidagi tamoillaridan kelib chiqdik ;

Ta'limning uzluksizligi va uzviyligi, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, Davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim dasturlarini bajarish, o'quvchilar uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur va etarli bo'lgan bilimlar hamda tabiiy tayyorgarligi yo'nalishi darajasini chuqurlashtirish, Respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga ehtiyoj darajasida zamin yaratish, fan texnika, texnologiya rivojiga xissa qo'shuvchi kadrlarni etishtirish maqsadlaridan kelib chiqadi.

Shulardan ko'zlangan maqsad amalga oshadi:

- Davlat ta'lim standartlarida belgilangan maqsad va vazifalar to'la amalga oshirilsa;

- Xar bir tashkillangan dars zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilsa;
- Bozor munosabatlari talablari darajasida dasturiy vazifalar belgilansa;
- Ta'lim berishning uzluksiz va uzviylik tamoyillari to'g'ri amalga oshirilsa;
- Yosh avlod tarbiyasida moddiy boyliklar manbayidan foydalanish mehnat muxofazasi va ekologik muammolar masalalariga oid vazifa to'g'ri ko'rsatilsa fan asoslari o'rgatish samaradorligi oshadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalarining yoritishda ilgari surilgan ilmiy farazlarga ko'ra quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Fan asoslarini o'zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
2. Mehnat ta'limi darslarida o'rgatilayotgan muammolarni o'zlashtirishda boshqa fan asoslaridan foydalanish.
3. Shu muammolarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar natijalari, ilmiy adabiyot manbaalar taxlili, soxa mutaxassislarining malaka oshirish tajribalari.
4. Pedagogik kuzatish, tajriba, sinov ishlari.

1.4 Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi va tarbiyaga doir barcha jiddiy masalalarni o'z vaqtida to'g'ri hal qilish avvalo fan o'qituvchisi va uning bilimi, g'oyaviy etiqodi, kasbiy mahorati hamda puxta tayyorlanishga, ishlab chiqarishdagi mehnat jarayonlarini, bajariladigan ketma-ketliklarni maxsulot ishlab chiqarishdagi xom ashyolar va ularning xususiyatlarini, asbob-uskunalarining tuzilishi va ularni qo'llash usullarini mukammal darajada egallaganligiga bog'liqdir.

O'quvchi yoshlarni ijodiy faoliyatga jalb etish, halq ho'jaligida ishlashda tayyorlash, ularda mehnatga muxabbat va yaratuvchanlik faoliyati jarayonida o'z bilimi va malakalarni ijodiy qo'llash ko'nikmalarni shakllantirish umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biridir.

Umumta'lim maktablari bilimlarining zaruriy xajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik faoliyati va amaliy tajribalari ko'nikmalarni rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishda ta'limning navbatdagi bosqichini tiklashga yordam beradi.

Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi fani mashg'ulotlarini yuqoridagi talablardan kelib chiqib tashkil etish va uni samaradorligini oshirishga xissa qo'shish ushbu bitiruv malakaviy ishning o'z oldiga belgilab qo'ygan maqsadi xisoblanadi. Belgilab olingan maqsad yo'lida olib borilgan izlanishlar xulosasi yoki yakuni sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan mehnat ta'limi fanida "Materialshunoslik" asoslarini o'rganishini Davlat standartlari va kadrlar tayyorlash milliy dasturitalablari darajasida amalga oshirishni nazarda tutganligi.
- Fan asoslarini o'rganishda xozirgacha unchalik e'tibor berilmay kelayotgan o'quvchilar mehnatini yakunlarida atrof-muhit muhofazasiga katta e'tibor qaratilganligi.
- O'quvchilarga materialshunoslik bo'limi asoslarini chuqur o'rgatish orqali shu soha bo'yicha zaruriy kadrlarga asos yaratilganligi.

1.5 Ishning amaliy ahamiyati.

Mamlakatimiz rivojlanish va demokratik jamiyat qurish yo'lida olg'a borar ekan, barqarorlikni saqlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashning hal qiluvchi shartlari jamiyatimizning siyosiy-iqtisodiy hayotini, ijtimoiy sohalarini chuqur

isloh qilish va yangilash jarayonlarini jadal amalga oshirishdan iborat ekanligi yanada ayon bo'lib bormoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng fan texnika rivojiga katta e'tibor berildi, ayniqsa og'ir sanoat, metallurgiya, mashinasozlik jadal rivojlanmoqda. Hozirgi kunda ko'plab xissadorlik hamda qo'shma mashinasozlik korxonalarini tashkil etilishi O'zbekistonga yangi texnika va texnologiyalarni olib kelishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bularning barchasi esa o'z navbatida mavjud moddiy manbaalardan foydalana olish madaniyatiga ega bo'lgan, shu yo'lda kamol topgan va o'z vataniga sodiq farzandlarni tarbiyalab etishtirish ishlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Shulardan kelib-chiqib yurtimizda ta'lim tizimining har bir sohasida, jumladan umumta'lim maktablarida, qolaversa Shu maktablarda o'qitilayotgan fanlarda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Har-bir mamlakat yuksak taraqqiyotining asosi uning yuksak cho'qqilariga eltuvchi va muqarrar xalokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma'rifat ekanligini shunchaki narsa emas. Bu o'rinda ma'rifatli insongina asosiy belgilovchi sub'etlardir.

Bizning bitiruv malakaviy ishimizning kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi o'rni va amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi nazariy va amaliy natijalardan umumta'lim maktablarining mehnat ta'limi o'qituvchilari mashg'ulotlarida darslarni tashkil etish bo'yicha usldubiy jihatdan tavsiyalar berish, kasb ta'limi hamda muxandis pedagoglar malakasi oshirish kurslarining o'quv jarayonida uslubiy ko'rstmalar sifatida foydalanishi, umumta'lim maktablari mehnat ta'xlimi o'qituvchilarini uslubiy ishlarini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish.

Bulardan tashqari "Materialshunoslik" bo'limlariga ixtisoslashgan kasb-xunar kollejlari "Yog'ochga islov berish" fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bilan o'quv jarayonini takomillashtirishda foydalanishlari mumkin.

1. 6. Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar

Bitiruv malakaviy ishi quyidagilardan iborat: I-bob. Kirish ,mavzuning dolzarbligi va uning ahamiyati, bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari, tanlangan ob'ektlar va tadqiqot usullari, ishdagi ilmiy yangiliklar va natijalar, ishning amaliy ahamiyati, bitiruv malakaviy ishning tuzilishi haqida umumiy ma'lumotlar, II-bob. Asosiy qismida: yoshlar tarbiyasida mehnat ta'limi fanining o'rni va vazifasi , mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mehnat ta'limi fanining vazifasi, maktab o'quv ustaxonalarida ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, mehnat ta'limi mazmunining kasb-xunarga yo'naltirish ishlari bilan uzviyligi, yog'ochdan ishlangan buyumlarga ishlov berish va unda ishlatiladigan materiallar haqida ma'lumotlar, duradgorlikda yog'och buyumlar sirtini pardoqlash, yog'ochdan tayyorlangan buyumlarni pardoqlashda ishlatiladigan materiallar va ularning xossalari, III-bob. pedagogik tajriba-sinov natijalari va tahlili, hulosa, foydalanilgan adabiyotlar, internet ma'lumotlari

II bob.Asosiy qsim

2.1. Beshik xaqida umumiy tushunchalar va nazariy axamiyati.



Bozorning savdosi qizg'in, shovqini jonli, g'ala-g'ovuri tumonat esa-da, odamlarining tili shirin. Shunday rastalarni birin-ketin aylana turib, usta-hunarmandlar tomonidan san'at namunasi darajasida yaratilgan beshiklar yonidan o'tdim-u, ko'zim quvnadi. Meningki, hislarim shunchalik to'lib-toshayotgan ekan, o'g'li yo qizi, nabirasi uchun beshik tanlayotgan ota-ona, bobo yo momoning hishayajonini tasavvur etavering.

Amaliy bezak san'ati bizda juda qadimdan shakllangan, rivoj topgan. Unda xalqimizning o'ziga xos milliy ruhi, zamonlar o'tsa hamki, an'analar o'ziga xos yo'sinda aks etmoqda. Zotan, hunarmandchilik xalqning etnik kelib chiqishi haqida ham muxtasar axborot, ma'lumot bera oladi. Milliy qadriyat va urf odatlar, qachonlardir tazyiq va tanqidga uchragan an'alarimizning qaytadan madaniy meros sifatida tiklanishi bejiz emas, albatta. Hozirda kulolchilik, misgarlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi kabi san'at turlari usta-hunarmandlar tomonidan tobora rivojlanmoqda.

Beshikchilik ham ajdodlarimizning ajoyib ixtirolaridan biri hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlari beshikni yuksak qadriyat sifatida e'tirof etishadi. Beshikning kelib chiqish tarixi haqidagi ilk ma'lumotlar XI asrga borib taqaladi. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devoni lug'otit turk" asarida beshik haqida e'tiborga molik ma'lumotlarni bitadi. Quyidagi fikrlar ham uning ko'hna qadriyat ekanidan dalolat beradi: "Shosh viloyatining IX-XII asrlarda markaziy shahri bo'lgan Binkatda savdo sotiq va hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududdan kulolchilik, temirchilik, shishasozlik ustaxonalari va g'isht bo'laklari bilan birga shishadan yasalgan tuvak va sumak ham topilgan..." Demak, beshik o'z yaratilish tarixiga ko'ra, o'rta asrlarda emas, balki undan ham oldin xalq ehtiyoji uchun xizmat qilib kelgan. Beshikning xosiyatlari ko'p bo'lib, Vatan tuyg'usi go'dak qalbiga u orqali singib boradi. Yurtimizning Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Andijon viloyatlarida beshikchilik keng rivojlangan. Ushbu hududlarda beshikka ishlov berib, gul solishning san'at darajasiga yetib borgan ajoyib shakllarini uchratamiz.

Beshikchilik san'ati hunarmanddan katta mehnatni talab etadi. Hunarmand-ustalar beshik yasashdan avval, uning inson sog'lig'iga qay darajada foydali ekanini hisobga olib, zararsiz yog'ochlarni tanlashgan. Bunda asosan tut va tol daraxtlaridan foydalaniladi. Yog'ochsozlik ishlariga razm solsangiz, ayniqsa, cholg'u asboblari yasashda ana shu daraxtning yog'ochiga ko'p murojaat etilgan. Boisi ana shu daraxtda ohangni jarangdor va mayin etuvchi sifat mavjud bo'lib, o'z navbatida bu quvvat beshikda ham sehrini yo'qotmaydi. Beshik tebratilar ekan, tebranma harakatdan chiqayotgan tovush go'dak qulog'iga yoqimli kuy misoli o'rnashadi va u orom beradi.

Beshik to'rt oyoqli, tekis taxtaga terilgan yotqich, tuvak uchun maxsus tutqich teshikdan iborat. Ikki yonbosh tarafi va oyoq tarafdagi ustki qismi yoy shaklida bo'lib, g'uppa (tebratgich)ga tutqich ulanadi. Ikki tarafdagi yoini esa yo'g'on, o'ymakor o'zak yog'och bog'lab turadi. Bundan tashqari, beshik shada, qo'sh yo'rg'a, pilta (bezak), qo'lbog' hamda g'aladon kabi qismlardan iboratdir.

Yog'och to'rt oy davomida quyosh nurlarida obdon quritilib, so'ngra beshik yasashga kirishiladi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, beshik yasashda ustalar bironta ham mixdan foydalanmaydilar. Ranglar jilosi ham tabiiy bo'yoqlardan olinadi. Yurtimiz vohalarida beshikchi ustalarning o'ziga xos uslublari mavjud bo'lib, har birining mahorati undagi noziklik, qulaylik va ranglar orqali ko'rsatilgan shakllar bilan ajralib turadi. Bolaning ranglar haqidagi taassurotlari ham aynan beshikda yotgan chog'ida shakllana boshlaydi.

Ranglarning ruhiyatga ta'siri inobatga olinsa, och alvon ranglar insonga iliqlik va xushkayfiyat ulashadi. Bola kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi ranglar beshiklarga jo bo'ladi. Undagi tasvirlarda ko'pincha anor guli, islmiy naqshlar, uchburchak shaklini eslatuvchi tumor ko'rinishidagi tasvirlar ifoda etiladi. Har bir unsur chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, tumor ma'nosini beruvchi ornament bolani ko'z-suqdan saqlashga, anor guli esa serfarzandlik, umrning boqiyiligiga ishoradir.

Xullas, beshik farzand kamolotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'hna va milliy qadriyatdir. Beshikka bo'lgan hurmat, e'zoz va ehtirom xalqimizda sog'lom bolalar voyaga yetishida asos bo'layotir.

2.2. Beshikni tuzilishi va tarbiyaviy ahamiyati

BESHIK—chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo'ljallangan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama. Asosan tut, tol va boshqa yog'ochdan yasaladi. Uzunligi. 1—1,05 m, baladligi 50 sm dan 60 sm gacha. Beshikning tuzilishi: to'rttadan sakkizta ustbozi (pom-bozi) va takbozi (girdbozi) bilan o'ralgan; bola yotishi uchun takbozilar usti-ga yupqa taxtachalar o'rnatiladi (unda tuvak uchun maxsus joy ajratiladi). Beshikning ikki tomonidagi yarim doyra shaklidagi yo'rg'a (oyoq)lariga uzunligi 1,2 m, eni 8—10 sm bo'lgan egmoch (qosqon) o'rnatiladi, egmochga dasta biriktiriladi. Dastaning ikkala tomoniga qubbalar yasaladi. Bolaning bosh va oyoqlarini muhofaza qilish uchun egmochlarning ichiga boshlog'i va bag'alak cho'plar o'rnatiladi. Beshik naqshlar bilan bezatiladi yoki rang-barang bo'yoklar bilan bo'yaladi, so'ng ba'zan lok surtiladi. Bolani belash uchun ip yoki shoyi matodan maxsus tikilgan abzallar (qovuz to'shakcha, taglik ko'rpacha, yostiqlar, qo'lbog'lar, govrapo'sh, choyshab va beshik) ishlatiladi. Beshikda yotganda bolaning tagi quruq, toza turadi; Beshikning bir maromda tebranishiga ona allasining hamohangligi beshikdagi bolaga yaxshi ta'sir etadi, uning tinch osuda uxlashini, ruhan sog'lom yaxshi rivojlanishini ta'minlaydi.

Beshik qadimdan uzbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg'iz va beshik sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Qadimgi manbalarda, xususan «Devonu lug'otit turk» (11-a.)da tilga olingan. Beshik kerti, beshik ketdi, quloq tishlash - bolalarni beshikdaligidayoq unashtirib qo'yish odati. O'tmishda bir-biriga yaqin oilalarning birida o'g'il, ikkinchisida qiz tug'ilsa, ular voyaga yetganlarida birga turmush qurishlari belgilab qo'yilardi. Ota-onalar kelishib, qizning boshini bog'lab qo'yish uchun beshik dastasiga pichoq bilan kertib—belgi qilib qo'yganlar. Beshik kerti urug'-qabilachilik davrining qoldig'i. Qo'shni, urug', qabilalar o'zaro do'stlikni mustahkamlashda beshik kertidan foydalanganlar. Beshik kerti qilingai farzandlar voyaga yetganlarida turmush qurishlari shart bo'lgan.

Beshik to'yi - Yaqin va O'rta SHarq, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklar oilasida to'ng'ich farzand tug'ilishi sharafiga o'tkaziladigan tantanali marosim. Bu

udum O'zbekiston viloyatlarida o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Beshik chaqaloqning ona qarindoshlari—bobosi, buvisi, tog'a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik udumi bilan bog'liq chaqaloqqa kerakli barcha buyumlar tayyorlangan. Dasturxonga non, patir va anvoi shirinliklar tugilgan, shuningdek unga yana o'yinchoqlar (qiz bo'lsa qo'g'irchoq) qo'shilgan.

Ko'p yerlarda (xususan Toshkentda) chaqaloqqa atab (agar o'g'il bo'lsa) toy ham yasatilgan. CHaqaloqning ota-onasi, bobosi va buvisiga sarpo ham qo'yilgan. Bezatilgan beshik, sovg'alar arava (mashina)ga yuklab, karnay-surnay va childirmachilar jo'rligida olib borilgan.

Mehmonlar kutib olinganda, niyatlari oq bo'lishi, bolaga baxt tilash ramzi sifatida ularning yuzlariga un surib qabul qilingan. SHu vaqtning o'zida boshqa xonada doya buvi boshchiligida barcha irim-sirimlar ijro etilib, chaqaloqni beshikka belash marosimi (odatda, bolani beshikka ko'p bolali ayol belagan) o'tkazilgan.



Marosim oxirida yaqin qarindoshlar chaqaloq huzuriga, yuz ko'rarga kirib sovg'a berib, beshik ustiga shirin-lik sochib baxt tilab chiqib ketadi-lar.

2.3. Beshik ixtiro - kashfiyot natijasidir.

Beshik ko'p asrlar avval hunarmandlarning aql-zakovati bilan ixtiro etilgan bo'lib, u haqidagi ma'lumotlar o'rta asr manbalarida, xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida, shuningdek, Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham ta'riflangan. Uning kelib chiqishi haqida turli farazlar mavjud. Ko'chmanchi xalqlarga tegishli bu kashfiyot, ko'chib yurgan paytda onalarga ancha-muncha qulayligi bilan afzal sanalgan.

Zamonaviylashgan vositalar yaratilgan hozirgi paytda beshikka talab qanday? Bolani beshikka yotqizish chindan ham zararlimi?

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi hamda YUNESKO hamkorligida o'tkazilgan tadbirda bu borada quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: bolani beshikka belamay qanchalik erkin qo'yilsa, shunchalik yaxshi rivojlanadi. Govrapech (beshik yopqichi)ning doimiy ravishda yopiq turishi natijasida quyosh nurlaridan bahra olmagan go'dakda A, D vitamini yetishmovchiligi kuzatiladi. Bu vitaminlar bolaning suyak to'qimalari rivojlanishi uchun zarur hisoblanib, usiz mushaklari yumshoqlashadi. Yumshagan a'zolari bog'lash natijasida a'zolar qiyshayishi kuzatiladi. Oyoqlarning «ikssimon», «o»simon bo'lib qolishi ana shular oqibatida yuzaga keladi.

YuNYeSKOning tadqiqotlariga ko'ra, ayni paytda O'zbekistonda har yilgi tug'ilish darajasi deyarli 600 mingga yetgan. Shunday ekan, dunyoga kelgan bolalarning ko'pchiligi beshikda yotishini hisobga olsak, ushbu mavzu yana bir bor tahlilga tortishga arziydi.

2.4. BESHICHILIK MA'NAVIY FOYDALI KASHFIYOTI



Beshik bolani ulg'aytirish uchun foydali bo'lib, kichik va ixchamligi uchun uni istalgan joyga ko'chirib olish mumkin. Qolaversa, chaqaloqni parvarishlash uchun ham qulay. Beshik go'dakni tashqi salbiy ta'sirlardan, ya'ni shovqin, issiq va sovuq, oftobdan saqlaydi. Bundan tashqari, go'dak beshikka maxsus qo'l-oyoq bog'lag'ichlari bilan bog'lab qo'yilishi, uni uyquda bexosdan qilinadigan harakatlardan cho'chimay, osoyishta va tinch uxlashiga imkon beradi. Shuningdek, belangan bolaning buti orasiga sumak, tagiga tuvak qo'yilishi uning tagi ho'llanishidan, shamollash va tanasining yallig'lanishidan saqlaydi, zax o'tmasligini ta'minlaydi.

Beshik tut, tol yog'ochlaridan yasilib, bu vosita bolaning organizmiga foydalidir. Naqshlarning yorqin ranglar bilan bezatilishi bolaning ranglarni tanish, ilg'ab olish funksiyasini rivojlantiradi, beshikka osib qo'yilgan buyumlar esa, uning qo'l harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Beshik yasaladigan tol daraxti hidi yo'qligi bilan ham afzaldir. Qadimda tabiblar bemorlarga tol daraxtining tagida o'tirishni bejiz tavsiya qilmaganlar. Beshikning fasllarga moslangan yopinchiqlari esa bolani qishda sovuqdan, yozda issiqdan saqlab, mo'tadillikni ta'minlaydi. Uning tagiga tariq solingan qovus (to'shakcha) yozilishining ham katta ahamiyati bor. Bola terlaganida yoki qovus yuvilganda tez quriydi. Undan qilingan yostiqa bola yumshoqqina yotadi. Boshi va orqasi to'shakka botmaydi, aksincha, massaj vazifasini bajaradi.

2.5. BESHICHILIKKA HAM ME'YORI KERAK

Lekin, tajribasiz yosh onalarning bolani noto'g'ri parvarish qilishidan bola organizmida turli xil nuqsonlar paydo bo'layotgani beshikka bo'lgan qarashlarni o'zgartirmoqda. Ayrim onalarning, ayniqsa, o'zbek oilalarida go'dakni beshikka belab qo'yib, o'zi oila yumushlari bilan band bo'lishi, bolaning soatlab unda yotishi beshikning vazifasidan yaxshi foydalana olmasliklarini bildiradi. Beshikda ko'p vaqt yotishi natijasida go'dakning orqa yelkalari qotib ketadi.

Odam harakatda bo'lsagina ovqatga talabi kuchayadi. Bolaning doimiy ravishda beshikda yotishi esa, mushaklarni ko'pam harakatga keltirmaydi. Organizm ham oziq moddalarni talab etmay qoladi. Bolalar shifokori Mohidil Alimardonovanning ta'kidlashicha, bolani faqatgina uxlaydigan paytda beshikka belagan ma'qul, uyqudan uyg'onganda esa uni yechib olib, tanasining orqa qismini uqalash darkor. Ayrim onalar bolalarini faqatgina tunda belaydilar. Kunduzi esa, belanchak kabi vositalarda uxlatadilar. Bu ham yaxshi tanlov.

Bola yig'layotgan vaqtida beshikni hadeb tebrataverish, uning asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekan. Ayniqsa, bu bosh miyaning qon bosimi oshgan bolalarda yomon holatlarni yuzaga keltiradi. Bu borada Hamza tumanidagi 4-shahar bolalar klinika shifoxonasining oliy toifali shifokori Nabira Zokirxo'jaeva quyidagilarni ma'lum qiladi:

- Bosh miyasida qon bosimi bor bolalarni beshikka belash tavsiya etilmaydi. Tebratish natijasida bola ovunmaydi, balki undan ham qattiqroq kuch bilan yig'laydi. Bu esa qon bosimining ko'tarilib ketishiga, ona va bolaning ham qiynalishiga olib keladi.

Go'dakning boshi beshikdan pachoq bo'ladi, degan fikrga shifokor N.Zokirxo'jaeva quyidagi fikrlari bilan qarshi chiqadi:

- Bosh miyaning pachoq bo'lishi va oyoqlardagi nuqsonlar beshikning

ta'sirida emas, balki ona va bola organizmida vitaminlarning yetishmasligi va go'dakni noto'g'ri parvarishlash oqibatida yuzaga keladi.

2.6. BESHIKNING MA'NAVIY AXAMIYATI.

Millatimizning urf-odatlariga qiziqib qolgan yaponiyalik tanishimni qarindoshimizning beshik to'yiga olib bordim. To'yxonaga kirib borar ekanmiz, ayvonda quda tomondan keltirilgan chaqaloq uchun sarpo-surug'dan tortib, shar va yumshoq o'yinchoqlar bilan bezatilgan bolalar arg'imchog'igacha bo'lgan buyumlarga ko'zimiz tushdi. Ularning orasida bejirimgina bezatilgan beshik ham bor edi. Ochig'ini aytsak, bularni ko'rgan odam yayrab ketadi. Bizni iliq kutib olib, dasturxonga taklif qilishdi. Hamma mezbonlar chet ellik mehmon bilan ovorayu, u bo'lsa beshigimizning atrofidan hech ketolmaydi. Tebranishiga ishqivoz bo'lib qoldi. Uning betakror naqshlar bilan tikilgan govrapechlari, ko'z tegmasin deb osilgan tumorlari mehmonni o'ziga butkul jalb etib qo'ydi...

- Beshikka bo'lgan talab haligacha so'ngani yo'q. Hatto, turg'unlik davrida beshiklar eskilik sarqiti, deb qaralgan bo'lsa ham, odamlar qoplarga solib uylariga beshik tashiganlar, - deydi beshikchi usta A.Rasulov. - Hozirgi kunda boshqa millat vakillari, xususan, rus, koreys xalqi vakillari orasida ham o'z farzandlarini beshikda katta qilishga havasi keladiganlar bor. Ularda bu qiziqish o'zbek qo'shnilarini ko'rib uyg'ongan.

Hatto, beshikchi ustalarning aytishicha, Qozog'iston, amerikalik o'zbeklardan ham yurtimizga kelgan mehmonlarga beshik olib kelish buyurtmasi tushar ekan.

Agar bu buyum yomon bo'lganida beshik an'analari shu vaqtga qadar yetib kelmagan bo'lardi, onalar esa o'z bolalarini beshikka belamasdilar, - deydi beshikchilar sulolasini davom ettirib kelayotgan Sur'at Akbarov.

2.7. BESHİK TURLARINING KO'RINISHI





3 bob. Metodika qsimi

3.1. O'rta umumta'lim maktabida o'qitiladigan mehnat ta'limi yog'ochga ishlov berish bo'limlarini o'rganish uchun dars ishlanmasi.

- | | |
|--|--|
| 1. Ish o'rnini to'g'ri tashkil qila bilish | 5. Havfsizlik qoidalarini bilishi |
| 2. Amaliy ishning bajarilish darajasi | 6. Andozani to'g'ri tayyorlay olishi |
| 3. O'quvchilarning nazariy bilimi | 7. Tayyorlangan ishning sifati |
| 4. Mehnat qurollariga egaligi | 8. Berilgan topshiriqni farqlay olishi |

Darsning borishi

V. Tashkiliy qismi: salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan topshiriqlarni baholab chiqish, darsni fanlararo bog'lab chiqish.

Yangi mavzuning bayoni

O'quvchilar ustaxonalardagi mashg'ulotlarda har xil detallar tayyorlaydilar. Bunda o'quvchilarda faqat mehnat usullarini shakllantirishgagina emas, balki ularni sodda texnologik protsesslarini planlashtirishni o'rgatishga doir vazifalar ham qo'yiladi. Tabiiyki, texnologiyani faqat konkret detallar misolida o'rgatish mumkin. Lekin ana shu konkret material texnologik protsesslarni planlashtirishning umumiy qoidalari haqidagi tasavvurni tarkib toptirish uchun baza sifatida ham xizmat qilishi kerak. Bu vazifani o'quvchilarga turli texnologik protsesslarning umumiyligini yoritish bilangina bajarish mumkin.

V sinf o'quvchilari yog'och buyumlarni tayyorlash va yig'ishda rejalash, arralash, randalash kabi operatsiyalarini kompleks holda bajaradilar. Metallarni ishlashdagi operatsiyalar kompleksi esa birmuncha kengroq: rejalash, to'g'rilash, qirqish, bukish, sim bilan ishlash metall listlari va simlarni biriktirish kabilardan iborat bo'ladi. Shu tufayli o'quvchilarda detallarni tayyorlashning texnologik

protsessi haqidagi tasavvurni kengaytirish imkoniyati tug'iladi. Bunda bolalar e'tiborini metall va yog'ochni qayta ishlashga doir texnologik protsesslarning umumnyligiga qaratish kerak. Buning uchun esa o'qituvchi ba'zi operatsiyalarni gruppalariga birlashtirishi va texnologik protsessning bosqichlarini, xususan 1). za-gotovka tanlash; 2) rejalash; 3) bo'laklash operatsiyalari (yog'ochni arralash. metallarni qirqish va boshqalar); 4) ishlov berish operatsiyalari (yog'ochni randalash, metallarni egovlash va boshqalar); 5) kontrol operatsiyalarni umumiy yo'sinda ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilar operatsiyalarning ana shunday klassifikatsiyasi bilan tanishgach yog'och va metallarga ishlov berishning texnologik protsesslari aynan bir xil bosqichlardan iboratligini bilib oladilar. Buning ustiga qo'l mehnati darslarida bajariladiga qog'oz va gazlamalar bilan ishlash prosesslari mazkur texnologik protsessning umumiy sxemasiga mos kelsa, bolalarni fikr doirasini kengaytirishga va bilimlarini politexnik asosda umumlashtirishga erishish mumkin.

V-sinf programmasida «texnologik protsess» tushunchasini shakllantirish nazarda tutilgan. Bu paytda o'quvchilar yog'och va metallni qayta ishlash korxonalariga o'tkazilgan ekskursiyalar tufayli ishlab chiqarish texnologik protsessi haqida ba'zi amaliy tasavvurlarga ega bo'ladilar. O'qituvchi ana Shu bilimlarga tayanib, ularni kengaytirishi va chuqurlashtirishi lozim. O'quvchilarga eng avval hozirgi sanoat korxonalari sharoitida texnologiyani ishlab chiqish nimalardan iboratligini va bu ishni kimlar bajarishini tushuntirish zarur. Shubhasizki, ana shu masalalarni chunonchi quyidagi misollar, yordamida faqat umumiy yo'sinda yoritish mumkin.

Hozirgi zamon mashinasozlik korxonalari biror mashinani tayyorlash buyurtmasini o'lgach, ko'rsatilgan talablarga muvofiq ikkita masalani: birinchidan, mashinaning konstruksiyasi qanaqa bo'lishi, ikkinchidan, bu mashina qanday tayyorlanishi kerakligini hal qiladi. Birinchi masalani konstruktor-lar va ikkinchi masalani texnologlar hal qiladilar. Masalan, parmalash stanogini

tayyorlash bo'yicha buyurtmada shpindelning aylanish chastotasi, mazkur stanokda o'yiladigan eng katta teshikning diametri va zagotovkaning eng katta gabarit o'lchamlari qancha bo'lishi kerakligi ko'rsatilishi mumkin. Konstruktor va texnologlar ana shu ma'lumotlarga asoslanib ishga; kirishadilar.

1. Ishning tartibini belgilash. Detal tayyorlashdagi texnologik protsessni tashkil etuvchi operatsiyalarning ketma-ketligini belgilash uchun bir qancha maxsus masalalarni hal qilish zarur. Bu masalalarni o'rganish bilan «Mashinasozlik texnologiyasi» fani shug'ullanadi. Texnolog bu fan ma'lumotlariga tayanib, detalni tayyorlash protsessida ko'rsatilgan aniqlikka erishish va bu ish iloji boricha arzonga tushishi uchun nima qilish kerakligini aniqlaydi.

2. Jihozlarni tanlash. Texnolog mazkur sex yoki korxonadagi mavjud jihozlarning, texnik xarakteristikasini yaxshi bilishi kerak. Mo'ljaldagi detal ishlanadigan stanokni tanlashda u qancha aniqlikni ta'minlay olishini uning o'lchamlari zagotovka o'lchamlariga to'g'ri kelishini aniqlash lozim.

3. Asbob va moslamalarni tanlash. Har kaysi stanokka tegishli asbob va moslamalar tanlash zarur. Buning uchun har bir asbob bilan ishlashda qanday aniqlikka erishilishini bilish kerak. Texnolog talab qilingan aniqlikka qarab, masalan; o'yishni parma; parma va zenker; parma, zenker va razvyortka; parma, zenker va ikkita razvyortka bilan bajarishni planlashtirishi mumkin. Stanokka o'rnatiladigan boshqa asboblarning (chunonchi, keskichlar) bilan ishlashning yanada ko'p variantlari bo'lishi mumkin.

4. Har bir o'tish bo'yicha shpindel aylanishining talab qilingan chastotasi va uzatish kattaligini ko'rsatish kerak. Bu ma'lumotlar maxsus spravochniklardan olinadi. Masalan, parmalashda shpindelning ayganish chastotasini tanlash uchun: qanday materialga ishlov berilishini; parma qanday materialdan yasalganini; teshikning chuqurligini; sovitish usuli va hokazlarni aniqlab olish zarur.

5. Mehnatni normalash ham texnologning vazifasiga kiradi. Bunda faqat bevosita ishlash, vaqti emas, balki stanokai yig'ishtirish, chizma bilan tanishish, shunnigdek, dam olish vaqtlari ham nazarda tutiladi. Normalash formulalar va maxsus spravochniklar bo'yicha bajariladi (o'quvchilarni mashinada parmalash vaqtini aniqlash formulasi bilan tanishtirish mumkin).

6. Texnolog mazkur ishni bajaradigan ishchi qanday malakaga ega bo'lishi kerakligini aniqlashi kerak. Texnolog bunda ham spravochniklardan foydalanadi, ular yordamida ishning xarakteri va talab qilingan aniqlikka qarab ishchining razryadi aniqlanadi.

Texnologik kartalarda, ko'pincha, ishning mazmuni, qo'llanadigan jihoz va asboblari, ish rejimi haqidagi ma'lumotlar beriladi (quyidagi texnologik kartalar formasiga qarang).

Texnologik kartalarni tuzish uchun muayyan bilimlarga ega bo'lish va ulardan foydalana olish kerak. Bu bilimlarga: texnologik protses elementlari, asboblarni (qirqish va o'lchash) tanlash qoidalari, materiallarga ishlov berish operatsiyalarining tartibi, operatsiyalararo o'tish tartibini belgilash qoidalari kiradi.





VI. Darsni mustahkamlash tayyorlangan ishlar tahlili, tarqatmalilik, savol, didaktik o'yinlar

VII. O'quvchilarni rag'batlantirish: darsda aktiv qatnashgan o'quvchilarning baholab chiqarish.

VIII. Uyda bajariladigan topshiriq.

TEXNOLOGIK XARITA

3.2. Beshilkaning ustki taxtachasini tayyorlash

	Xom ashyo: 15x40x400 mmli taxta Materiali: qarag'ay.	
Ishning tartibi	Eskiz	Asbob va voslamalar
Zagotovkani enini to'rt tomondan rejalash		Reymus, o'lchagich lineyka
Ikkinchi qirrasini randalash		Randa, o'lchagich lineyka, go'niya
Zagotovkani uzunasiga to'rt tomondan rejalash		Go'niya, o'lchagich lineyka, qalam
Uzunligi bo'yicha qirqish		Dastarra
Detal konturi va arralash chizig'ini to'rt tomondan rejalash		O'lchagich lineyka, go'niya, qalam
Reja bo'yicha qi'rqish		Burcharra
Qiya yuzalarni randalash Planka o'lchamlarini tekshirish		Randa, o'lchagich lineyka, go'niya O'lchagich lineyka

3.3. 5-sinfda “Yog’ochga islov berish yo’nalishida mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasi” mavzusi bo’yicha tayyorlangan darsni o’rganish ketma-ketligi.

Daraxt tanasining tuzilishi va yog’och hom-ashyolar. Ma’lumki, barcha turdagi yog’och- taxta hom- ashyolar darahtdan olinadi. Har qanday o’sib turgan daraxt uch asosiy qismdan tashkil topgan: ildizi tana va shoxlar. Daraxt ildizi er ostiga joylashgan bo’lib, darahtni kerakli ozuqasi bilan ta’minlaydi. Daraxt ildizida o’q tomirlari, yon tomirlar bo’ladi. Qalin o’rmonlarida o’sadigan daraxtlarning ildizida yon tomirlari kam bo’lib, ular asosiy o’q tomirlardan iborat bo’ladi. Siyrak va yakka tartibda o’sgan daraxtlarning ildizi erga tik ketmasdan er betini qoplab tarqaladi. Tana o’zida darahtning o’sishi uchun kerak bo’ladigan ozuqa moddalarini shoxlar orqali o’tgan ozuqa moddalarni ildizga o’tkazadi.

Daraht tanasidan shoxlar butalgandan so’ng u xoda holiga keladi. Xodalar har xil o’lchamli bo’ladi. Shoxlar erdan olingan ozuqa moddalarini barglariga o’tkazadi. Barglar daraht tanasida hosil bo’lgan ortiqcha namlikka bug’lantiradi, Havo tarkibidagi karbanat angidrit (SO_2) gazini yutib, o’zidan sof kislorod ajratish xususiyatiga ega. Daraxtning eng qimmatbaxo qismi bu uning tanasidir. Tananing yog’ochlik qismi po’stloq osti mag’iz va o’zakdan tashkil topgan. Yog’ochni ko’ndalang qir qilish bo’yicha qaraganda yillik halqalar aylana shaklida, bo’yicha qir qilish bo’yicha qaraganda to’g’ri chiziqlar shaklida ko’rinadi. Kesilgan g’o’laning ko’ndalang qir qilishdagi halqalar daraht yoishini bildiradi. Yillik halqalarning ortishi natijasida tana yo’g’onlashibboradi. Yog’och tayyor qurilish xom- ashyosi bo’lib, u halq xo’jaliginng turli sohalarida keng qo’lamda ishlatiladi. Yog’och tayyor duradgorlikda ishlatiladigan asosiy hom ashyo hisoblanadi. Yog’ochning keng ko’lamda ishlatilishiga sabab uning texnik xossalarining yuqoriligidir. Yog’ochni ishlash, vazni engil kultaligi yuqori, issiqlik va tokni yomon o’tkazadi, kislota va ishqorlar ta’sirida tez emirilmaydi. Ko’pchilik yog’ochlarning tashqi ko’rinishi chiroyli bo’lib, puxta elimlanuvchi bo’ladi va yaxshi pardoatlanadi. Ammo yog’ochning ayrim kamchiliklari ham bor:

temperatura namlik o'zgarish natijasida yog'och qurib tab tashlaydi, nam tortib shishadi, eshilib toblanadi yoriladi va xokazo. Yog'ochning puxtaligi, qattiqligi va boshqa mexanik xossalari, metallardagi singari, turli yo'nalishlarda turlichadir. Yog'ochning mexanik xossalari nam ta'sirida keskin kamayadi. Yog'och ishlash korxonalarida hosil bo'ladigan chiqindilardan yog'och qirindisi va payroxalarni presslash yo'li bilan tayyorlanayotgan yog'och hom ashyolar tabiiy yog'ochlarida uchraydigan har qanday nuqsonlardan kamchiliklardan holi. Ular qurilashda, mebel korxonalarida keng ishlatilmoqda.

